

## 53-§. LABORATORIYA ISHI LINZANING OPTIK KUCHINI ANIQLASH

**Maqsad:** linzaning fokus masofasini va optik kuchini aniqlashni o‘rganish.  
**Kerakli jihozlar:** qavariq linza, elektr lampa, ekran va mashtabli chizg‘ich.

### Ishni bajarish tartibi

1. Elektr lampa, linza va ekranni stol ustiga 79-rasmda ko‘rsatilgandek joylashtiring.

2. Lampani yoqing. Ekranni oldinga-orqaga surib, lampa tolasining eng aniqroq tasviri hosil bo‘ladigan masofani toping. Buyumdan (lampadan) linzagacha bo‘lgan  $d_1$  masofani va linzadan tasvirgacha (ekrangacha) bo‘lgan  $f_1$  masofani o‘lchang.


3. Lampa bilan linza orasidagi masofani  $d_2$  va  $d_3$  ga o‘zgartirib, tajribani takrorlang. Ekranda lampa tolasining eng aniqroq tasviri hosil bo‘lgan masofada  $f_2$  va  $f_3$  larni o‘lchang.

4. Linza formulasidan foydalanib har bir tajribadan olingen  $d_1$  va  $f_1$ ,  $d_2$  va  $f_2$ ,  $d_3$  va  $f_3$  uchun fokus masofasi  $F_1$ ,  $F_2$ ,  $F_3$  ni hisoblang.

5.  $F_{\text{o},\text{rt}} = (F_1 + F_2 + F_3) / 3$  formulaga qo‘yib, fokus masofasining o‘rtacha qiymatini hisoblang.

6.  $D = 1/F_{\text{o},\text{rt}}$  formuladan linza optik kuchining o‘rtacha qiymatini hisoblang.

7. O‘lchash va hisoblash natijalarini jadvalga yozing.



79-rasm.

Nº	$d$ , m	$f$ , m	$F$ , m	$F_{\text{o},\text{rt}}$ , m	$D$ , dptr
1					
2					
3					

8. Linzani lampadan  $d = 2F$  masofaga qo‘ying. Ekranni oldinga-orqaga surib, unda lampa tolosi tasvirini hosil qiling.

9. Linzani lampadan shunday masofaga qo‘yingki, bunda  $F < d < 2F$  shart bajarilsin. Ekranni surib, unda lampa tolasining tasvirini hosil qiling.

10. Linzani lampadan  $d < F$  masofaga qo‘ying. Ekranda lampa tolasining tasvirini qidiring. Linza orqasida tasvir hosil bo‘lmaganligiga ishonch hosil qiling.



1. 8–9-bandlar bo‘yicha o‘tkazilgan tajribalarda ekranda hosil qilingan tasvirlar bir-biridan qanday farq qiladi?
2. 10-band bo‘yicha o‘tkazilgan tajribada nima sababdan ekranda tasvir hosil bo‘lmaganini tushuntirib bering.
3. Tajriba natijalarini tahlil qiling va ular yuzasidan fikr-mulohaza yuriting.